

**O‘RTA OSIYODA ATIK DAVR SHAHARSOZLIK AN‘ANALARI
(MIL.AVV IV MILL. IV ASARLAR)**

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti ijtimoiy fanlar fakulteti
tarix yo‘nalishi 3 kurs talabalari*

Qurbonaliyev Ilhom va Zikirov Sirojiddin

Annotation: *In this article, we will mainly give information about the urban planning of the Antiquity and the cities built by Alexander the Great and his opinions about them.*

Annotatsia: *Ushbu maqolda biz asosan Antik davri shaharsozligi va Aleksandr Makedonskiy tomonidan qurilgan shaharlar va ular haqida aytilgan fikrlar haqida ma‘lumotlar berib o‘tamiz.*

Абстрактный: *В этой статье мы в основном дадим информацию о градостроительстве Античности и городах, построенных Александром Македонским, и его мнения о них.*

Keywords: *Alexander the Great, Central Asia, Jonboz Castle, Ox, Achaemenids, V. Tarn, Plutarch, Strabo*

Kalit so‘zlar: *Aleksandr Makedonskiy, O‘rta Osiyo, Jonboz qal‘a, Oks, Ahamoniylar, V.Tarn, Plutarx, Strabon.*

Ключевые слова: *Александр Македонский, Средняя Азия, Замок Джонбоз, Окс, Ахемениды, В. Тарн, Плутарх, Страбон*

Mavzuga oid adabiotlar talili: Bu davrga oid manbalar boshqa davrlarga qaraganda ko‘pdir. Ammo bu davrlardagi asosiy manbalar hisoblangan qadimgi Yunon tarixchilarning asarlari o‘zimizning tilda tarjima qilinmagan shu sababda biz ushbu manbalardan unumli foydalana olmaymiz. Ammo shu sabablarga qaramay bu davrni yoritib berishimiz uchun adabiyotlar etarli deyishimiz

mumkin. Ayiqsa o‘zimizning tarixchilardan Bahodir Eshov, U. Alibekov, T. Mamatsaev va boshqa tarixchilarning asarlari bor.

Albatta har bir davr o‘zining chuqur tarixiga egadir. Shu o‘rinda bu davr ham o‘zining tarixi, dolzarb muammolari va o‘zining yutuqlariga egadir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek “ Tarixiy xotirasiz – kelajak yoq ”.[1] Darhaqiqat biz yurtimizning har bir davrini chuqur o‘rganishimiz kerak va zarurdir. Sababi har bir davr o‘ziga xos madaniyat va urf odatiga ega, bundan tashqari agar bir davr tarixi o‘rganilmasa tarix mukammal bo‘lmaydi. Shu sababdan bu davr shahahsozligi biz tarixchilar uchun juda muhimdir.

O‘tgan asrning 40-50 yillaridan boshlab mil.avv. IV - milodiy IV asrlar davri O‘rta Osiyo tarixi urganish jarayonida «antik», «antik davr» jumalari muomalaga kirgan edi. Ayrim tadqiqotchilar bu jumalarni faqat Gretsiya va Rim tarixiga nisbatan ishlatish lozim degan g‘oyani ilgari surgan bo‘lishlariga qaramay, O‘rta Osiyo qadimgi davri bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar olimlar-arxeologlar, tarixchilar, antropologlar, san‘atshunoslar kabilarning ko‘piligi bu jumalarni Urta Osiyo tarixiga nisbatan xam ishlatish mumkin degan nuqtai nazar tarafdori bo‘ldilar.[2]

Arxaik ibtidoiy-jamoa an‘analari kuchli markazlashgan davlat hokimiyatiga ega ibtidoiy harbiy demokratiya bilan birlashib, ga‘yrioddiy barqarorlikka erishdi.

Bu davlat hokimiyatining muhim vazifalaridan biri O‘rta Osiyo iqlim sharoitlarida zarur bo‘lgan keng irrigatsion tizimni yaratish va doimiy qo‘llab quvvatlashdan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, urug‘larning ajralish davri o‘z hududini himoya qilish zaruratidan kelib chiqqan ularni birlashtirish jarayoni bilan bog‘liq. Vaqt o‘tishi bilan mudofaa inshootlari-devor va minoralar yuzaga keldi. Shahar tipidagi manzilgohlar yaratish uchun zamin paydo bo‘ldi. “O‘z tosh devorlari, minoralari va kunguralari bilan tosh yoki g‘isht uylarni o‘rab turgan shahar, qabila yoki qabilalar birligining markazi qilingan; qurilish san‘atidagi ulkan taraqqiyot, ammo shu bilan birga ko‘payib boruvchi xavf va himoyaga ehtiyojning belgisi”. Bu so‘zlarni O‘rta Osiyoga ham tegishli deyish mumkin.[3]

Ayniqsa bu davrda Xorazm haqida ham juda kop malumotlar uchraydi. Bu haqida ayniqsa T.Qodirov va boshqalar tomonidan yozilgan “ O’rta osiyo shaharsozlik madaniyati “ o‘quv qollanmasida ma’lumotlar berib otiladi.

Taxminan manzilgoh markazida kulolchilik ustaxonalari qoldiqlari topilgan; bu yerda, hunarmandlar yashagan.

Shunisi xarakterliki, sitadelda muhim qurilmalar qoldiqlari yo’q va umuman u yerdan doimiy foydalanganliklari dargumon. Bu, ko’proq biror xavf vaqtida aholining berkinadigan va diniy marosim majlislari o’tadigan, manzilgohning mudofaa qismi bo’lgan. O’rni va vazifasi bo’yicha - bu Jonboz qal’aning o’ziga xos keng tarqalgan “olov uyi” yoki arxaik manzilgoh - “tepalarning yo’laksimon xonalari. Boshqa tomondan, Bozor qal’aning sitadelini Ayoq-qal’a bilan taqqoslash mumkin. U yerda ham, bu yerda ham qal’aga hech kim joylashtirilmagan va uning o’rtasi bosh qolgan. Bozor qal’a shahri rejasida Jonboz qal’ada ham, Qal’aliqirda ham qo’llanilgan jamoat binolari joylashuvining ikki usuli birlashuvini faraz qilish mumkin. Asosiy ko’cha oxirida, kirish darvozalari qarshisidagi devor yonida yirik bino joylashgan, chamasi - hukmdor qarorgohi asosiy darvozadan chetda, ularga bevosita yaqin joyda sitadel va ibodat yig’ilishlari joyi joylashgan. Saqlangan bo’laklarni alohida alohida solishtirganda va taqqoslaganda antik davr O’rta Osiyo shahrining umumiy me’moriy-rejaviy sxemasi oydinlashadi. Siyosiy jihatdan bu shaharlar alohida jamoalar kabi, rayon-rustaklarni boshqaruvchi markaziy mudofaa punktlari kabi namoyon bo’ladi. Bu yer - hukmdorlarning qarorgohi bo’lgan.

Ibodat marosimlarida asosiy o’rin o’ynagan hukmdor-kohinlar haqida gapirish mumkin. Hamma, hattoki anchagina oddiy shaharlarda asosiy bino-ibodat joyi, ko’pincha hukmdor-kohinning qarorgohi ham bo’lgan.[3]

Shuni aytishim mumkinki bu davr shahar sozligi oldingi davr shahar sozligidan birmuncha farq qilgan.

Eramizdan avvalgi II asrda esa Oks daryosi bo'yida yana qo'rg'on devorlari qurildi. Shaharning sirtqi yuzasida ham himoya qurilmalari qurildi.

Bular ham muhandislik talabiga javob berar edi. shuning uchun kamonchilar turli darajadagi devorlardan turib bemalol dushmani nishonga olardilar.

Shaharda qazish ishlari ancha ehtiyokorlikni talab etadi, chunki qadimgi mudofaa qurilmalari xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, har bir g'ishtning xajmi 55 sm ga teng edi, garchi bular Ahmoniylar davriga xos bo'lsada, lekin yunonlar ham bu an'anani davom ettirdilar. Shuning uchun bo'lsa kerak ayrim tarixchilar tomonidan "Grek inshootlari - bu ulkan inshootlar" eki uning aksi: "Engil va bo'sh inshootlar - greklarniki emas", degan fikr ilgari suriladi.

Antik davrda vujudga kelgan shaharlarga Sirdaryo bo'yidagi yodgorliklarni misol tariqasida keltirsa bo'ladi. Yozma manbalarda keltirilishicha, shahar madaniyati va ko'chmanchi-o'troq xalqlarning bir-biri bilan aloqalari shahar zonasida kechgan. Ba'zi tarixiy manbalarda Yaksart bo'yi saklari shaharlar paydo bo'lgunga qadar er osti g'orlarda yashaganlar deyiladi. Boshqa antik, qadimgi fors manbalarida Qanha, Antioxiya, Yaksart orti shaharlari deb yuritiladi. Ikkita bir-biriga zid bo'lgan bu qarashlar - birida shahar qurilishi mahalliylikdan, ikkinchisida esa ellinlar ta'sirida vujudga kelgan degan fikrlar bor.[4]

Qadim O'rta Osiyodagi antik shaharlar va istehkomli manzilgohlarning katta qismlari Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlarining tarixchilari (Arrian, Kursiy, Strabon) tomonidan qayd etiladi. Ular turli shaharlar devorlari aylanasi goh 32 stadiy (5 km), goh 60 stadiy (9 km), goh 80 stadiy (12 km), goh 150 stadiy (23 km dan ortiq) deb ko'rsatadilar. So'g'dning yirik shahri - Maroqanda tashqi devori ichidagi arkni hisoblaganda (Kursiyda) 70 stadiy (11 km) ga teng bo'lgan. Odatda bu raqamlarni bo'rttirilgan deb hisoblaydilar, ammo ular, umuman, Avestoning "ideal shahar" devorlari uzunligiga (12 km) qanday bo'lsa, qadim Xorazmning real oddiy shahri Ko'zaliqir devorlar uzunligiga (3 km) ham xuddi shunday muvofiq keladi.

Qadimgi Xorazmda ham antik davrlarda bir qancha qal'alar shakllanadi. Ulardan biri Aqshaxon qal'a maydoni 50 ga bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shakldagi rejaga ega edi. Ushbu qal'a yuqorigi va pastgi qismlardan iborat. Yuqori qal'a

alohida mudofaa devori bilan o'ralgan va 11 ga maydonga ega bo'lgan. Sharqiy va janubiy devorlarda kirish darvozalari joylashgan. Ular murakkab aylanma kirish yo'llari bilan ta'minlangan. Qal'aning markazida alohida ahamiyatga ega bo'lgan bino joylashgan. Qal'ada ibodatxona, hukmdorlar saroylari ham bo'lgan. Pastki qal'aning maydoni 40 ga bo'lib, u ham mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Ushbu devorlar yuqori qal'aning shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy devorlariga tutashgan. Darvoza shimoli-sharqiy burchakka yaqin erda bo'lgan.[5]

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ahmoniylar davridayoq «Marg'iyona shahri» mavjud edi. Bu davrda Marv vohasidagi Erkqal'a maydoni 1800x500 metr bo'lgan shahar tiidagi manzilgoh bo'lgan. Govurqal'a hududlari xam aynan mana shu davrda o'zlashtiriladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu manzilgox o'sha davridayoq shahar xususiyatiga ega bo'lib, butun voxaning markazi edi. Davr oxirlariga kelib ko'xna shahardagi hayotning faolligi kuchayadi. Govurqal'a ko'xna shaxri hududining shimoly—sharqiy va markaziy qismlaridagi madaniy qatlamlar jadallik bilan to'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan mana shu aholi punkti makedoniyalik Iskandar yurishlari davrida grek —makedon qo'shinlari tomonidan egallanadi. Kursiy Rufning Iskandar, «Ox va Oks daryosidan o'tib Marg'iyona shahriga keldi», degan xabari aynan mana shu aholi punktiga taaluqli deb hisoblanadi. Arxeologik ma'lumotlar natijalariga ko'ra, ushbu shaharning bo'ysundirilishy tinchlik xususiyatiga ega bo'lib, urbanizasiya jarayonlariga ta'sir etmagan. Aynan mana shu shahar qayta nomlanib Iskandariya nomini olgan.[6]

Ayrim ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak yunonlar albatta bizni hududda ham o'zining uylari, qasrlari kabi inshootlar qurganlar. Ammo bu inshootlar asosan Yevropadagi kabi toshdan emas aksincha, g'isht va guvaladan yashaganlar. Shu sababdan bu inshootlarning ko'p qismi Yevropa shaharlaridek saqlanib qolinmagan. Albatta toshdan qurmagan sababi bor edi, chunki O'rta Osiyo hududida qurilish toshlari Yevropaga o'xshagan emas edi.

Albatta bu davr asosan Aleksandr Makedonskiyning mill,avv IV asrlarda O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan boshlanadi. Aleksandr Makedoniskiy bu

hududlarni bosib olganidan keyin bu hududlarga o'z qoshinlarni saqlab qolish maqsadida O'rta Osiyo hududlarda bir nechta shahrlar qurdiradi. Bu haqida ayniqsa B.Eshovning yozgan kitobidan bilishimiz mumkin.

Kopchilik tadqiqotlarchilarning e'tirof etishlaricha, Makedoniyalik Iskandarning shaxarsozlik faoliyati katta ahamiyatga egadir. Plutarx bergan ma'lumotlarga ko'ra u 70 dan ziyod shaxarlarga asos solgan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari esa boshqacha xulosalar beradi. Shuning uchun xam Iskandarning shaxarsozlik faoliyati xususidagi ilmiy baxslar hanuzgacha davom etmoqda. Jumladan, V.Tarn, A.Shofman va ba'zi bir boshka olimlar bu rakamga shubxa bilan karaydilar va u ancha oshirib ko'rsatilgan degan fikrni ilgari suradilar. V.Tarnning hisob kitoblariga qaraganda, Iskandar o'ntadan ortiq, aniqrog'i, 13 ta shaharga asos solgan. Bu jarayonda u Tigr daryosining sharqiy tomonida shaharlar asos solishga alohida e'tibor bergan «Istoriya tadjikskogo naroda» kitobining birinchi nashridi ham mazkur masala xuddi shunday talkin kilingan.

Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, Iskandar Baktriya va Sugdiyona 8 ta shaharga, Yustinning ma'lumotlariga Karaganda esa 12 ta shaharga asos solgan. Ammo, bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan va ko'pgina ilmiy munozaralarga sabab bo'lgaki, bu alohida mavzu hisoblanadi.

Biz O'rta Osiyo hududlarida Makedoniyalik Iskandar uchta: Oks Iskandariyasi, Iskandariya Eskata (Chekkadagi Iskandariya) va Margiyonadagi Iskandariya shaxarlariga asos solganligi haqida ma'lum ma'lumotlarga egamiz.[2]

Tadqiqotla natijalaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Iskandar tomonidan asos solingan punktlar - shaharlar yoki mustahkamlangan manzilgoxlar bo'lgan. Iskandar shahar manzilgoxlarida aholini aralashtirish siyosatini izchil amalga oshirgan. Ular ayrim hollarda polis tuzilishiga ega bo'lsada - shaharni giparx yakkaboshchilik asosida boshqargan. Uni podshoning o'zi tayinlagan va amaldan tushirgan. Umuman olganda bu ko'hna shaharlar O'rta Osiyourbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga katta turtki berganligini e'tirof etgan holda,

Iskandaryurishlariga qadar xam bu hududlarda yuksak shaharsozlik madaniyati mavjud bo'lganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.[7]

Men shuni aytishim mumkinki hali bizga nomalum bu davrga oid kop yashirinib yotgan tarix mavjud, shu sababdan biz yosh tarixchilar bu borada albatta izlanishiimiz kerak. Hali organilmagan juda kop hududlarimiz mavjud bolib ularni organish biz yosh tarixchilarning asosiy burchimizdir.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda bu davr shaharsozligi O'rta Osiyo shaharsozligi tarixida ulkan o'zgarishlariga sabab bo'lgan deyish mumkin. Ammo bu davr shaharsozligi bo'yicha ayrim muammolar va yutuqlar ham mavjud.

Albatta bu mavzu bo'yicha mening taklif bor. Taklifim shundan iboratki agar har bir Tarix va Arxeologiya fakultetlari bir bo'lib shu mavzuni chuquroq o'rgansalar juda yaxshi natija bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1)I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" Muloqot 1998-yil 2-3 betlar
- 2) B.Eshov " O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi" "Fan va Texnologiya" Toshkent 2008 yil
- 3) T.F.Qodurova va boshqalar " O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyati" "o'quv qo'llanma" Toshkent 2014
- 4) U.Alibekov va Sh.Mamatov "O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari" o'quv qo'llanma " Guliston 2011
- 5)Tohir Mamatmusaev " O'zbekiston tarixi shaharlarning tipologik rivojlanishi" Toshkent 2009
- 6)U.Alibekov " O'rta Osiyo qadimgi va o'rta asr shaharlari tarixi" Guliston 2013
- 7) E.Rahmonov "O'zbekiston shaharlari tarixi" o'quv qo'llanma Qo'qon 2023